



## DIALECTAL DESCRIPTION OF A "INGICHKA DIALECT"

Avazova Lobar Aktamovna

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi 1st year master's degree in "Folklore and dialectology"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5217958>

### ARTICLE INFO

Received: 05<sup>th</sup> August 2021

Accepted: 10<sup>th</sup> August 2021

Online: 15<sup>th</sup> August 2021

### KEY WORDS

*dialect, phonetics, morphology, lexicon, kipchak.*

### ABSTRACT

*Simultaneous research of Uzbek dialects has been done a lot. However, there are unexplored dialects. These dialects include Ingichki dialect of Nurabad district of Samarkand region. This small study reflects the most characteristic phonetic, morphological, and lexical features of the dialect.*

## INGICHKA SHEVASINING DIALEKTAL TAVSIFI

Avazova Lobar Aktamovna

Alisher Navoiy nomidagi TDO"TA universiteti "Folklorshunoslik va dialektologiya" mutaxassisligi I kurs magistranti

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-avgust 2021

Ma'qullandi: 10-avgust 2021

Chop etildi: 15-avgust 2021

### KALIT SO'ZLAR

*sheva, fonetika, morfologiya, lug'at, qipchoq*

### ANNOTATSIYA

*Bir vaqtning o'zida o'zbek shevalarini o'rganish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi. Biroq, hali o'rganilmagan ko'plab shevalar mavjud. Bu shevalar sirasiga Samarqand viloyati Nurobod tumanining Ingichki shevasi ham kiradi. Bu kichik tadqiqot dialektning eng xarakterli fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini aks ettiradi.*

O'zbek tili boshqa turkiy tillardan ko'p shevaliligi bilan ajralib turadi. O'tgan tarixiy davr ichida o'zbek shevalari to'xtovsiz taraqqiy etdi va natijada uch yirik lahja vujudga keldi. Bular: qarluq-chigil-uyg'ur lahjasi, qipchoq lahjasi, o'g'uz lahjasi. Quyida qipchoq lahjasiga kiruvchi Ingichka shevasining fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Ingichka — Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi shaharcha bo'lib Zirabuloq tog'larining janubi-sharqiy yon bag'rida, Ingichka soyi bo'yida joylashgan. Aholisi 15,3 ming kishi. Ingichkaning o'rta qismidan Ingichkasoy oqib o'tadi. Ingichka 1948 yil "Ingichka- volfram" konining ishga tushirilishi munosabati bilan vujudga



kelgan.<sup>1</sup> "Ingichka" nomiga toponimik lug'atda quyidagicha izoh beriladi: Suv o'zani (jilg'a, soy, dara, kichik daryo)ning tor va oqim tezligi kuchli bo'lganligi uchun o'tish qiyin bo'lgan o'zani yonidagi aholi maskani. Darhaqiqat, yuqorida Ingichka shaharchasidan Ingichkasoy oqib o'tganligi haqida ma'lumot berildi.<sup>2</sup> Ingichkada, asosan, o'zbeklar, qisman, rus, tatar, yahudiy va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Qarluq va o'g'uz lahjasi vakillari uchramaydi.

**Ingichka shevasining fonetik xususiyatlari:** Bu shevadagi unli va undoshlar ko'p jihatdan boshqa o'rganilgan qipchoq shevalariga mos keladi va mazkur shevada ham a, ä, e, i, i, o, ö, u, ü unililari qo'llaniladi. Shevada quyidagi fonetik qonunlar amal qiladi: Singarmonizm. Bu qonunning palatal singarmonizm turi to'liq amal qiladi: xola ~ xala, tog'a~taya, olib boradi~ apparadi, yuraver ~ žüribir. Labial singarmonizm quyidagi o'rinlarda saqlanadi: buyum, qolum, yüzüm va boshqalar. Diftonglashish. Shevada va, vo, ji, je va boshqa diftonglar qayd qilinadi: odam ~<sup>v</sup> adam, u ham ~<sup>v</sup> olam, o'ylab ~<sup>v</sup> ojlap, shular ~ šo'lar, ellik ~<sup>j</sup> elüv, ikkinchi ~<sup>j</sup> ekinchi; Tovush mosligi. Ma'lumki, bu qonun adabiy til va muayyan sheva yoki shevalararo tovush farqlari bo'lsa-da, ma'no aynanligini saqlaydi :<sup>3</sup>

-so'z boshida j ~ ž ga o'tadi; yotdim~ žattim, yuragim~ žirägim, yo'l ~ žol, o'tkazib yubordim~ ötkazip žärdim, yuraverdik~ žüribirdik. Ma'lumki, bu xususiyat qipchoq shevalarining asosiy fonetik belgisi

hisoblanadi; <sup>4</sup> -so'z o'rtasida va oxirida γ ~ v undoshi mosligi: tug'ib ~ tuvip, tog'~ tav, sog'~sav; -so'z o'rtasida g~j mosligi: sigir ~ sijir, tegdi ~ tijdi.

Quyidagi fonetik jarayonlar yuz beradi: so'z oxirida k, q undoshlari tushib qoladi: sariq ~ sari, kichik ~ kiççi. Bu jarayon ham barcha qipchoq shevalariga xos; o'z o'rtasida l undoshi tushib qoladi: qolgan~qa:yan, bo'lgan~bo:yan, bo'lsa~bo:sa; so'z o'rtasida tovush spirintizatsiyasi yuz beradi, ya'ni q undoshi γ ga o'tadi: chiqdi ~ čiydi, tiqdi ~tiydi ; -l undoshi bilan tugagan so'zlarga -d undoshli affiks qo'shilganda, progressiv assimilyatsiya yuz beradi: oldi ~ alli, keldi ~ kelli, aldab ~ ällap va b.

**Ingichka shevasining morfologik xususiyatlari:** - tushum va qaratqich kelishiklari (-ni, ning) affikslarida n undoshi sonor va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarda **d**, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarda **t** tovushlari bilan almashadi: akamni ~ **äkämndi**, uyni ~ **üjdi**; otni ~ **atti**, tutni ~ **tutti**; akamning ~ **äkämndiñ**, Bahodirning ~ **Bahadirdiñ**; otning~**attñ** va **b**.

-jo'nalish kelishigining **-ya** shakli qo'llaniladi: odamlarga ~ **adamnarya**, bechoraga~ **bečaraya**. Bu qo'shimcha orqa qator unlili, sonor va jarangli undosh hisoblanadi.

-adabiy tildagi -ku yuklamasi -qu variantiga ega bo'ladi: bordi-ku ~ **bardi-qu**, keldi-ku ~ **keldi-qu**. Bu affiks singarmonizmga bo'ysunmaydi.

-mi so'roq yuklamasi -mä//ma shaklida

<sup>1</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ingichka>

<sup>2</sup> Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining izohli o'quv lug'ati. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. - B. 24.

<sup>3</sup> Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. - Toshkent: Nodirabegim, 2021. -B. 46.

<sup>4</sup> To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi.- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi , 2004.- B. 38.



qo'llaniladi: berganmi ~ **bergämmä**, borganmi ~ **baryanma**. Bu jihatdan boshqa qipchoq tizimidagi tillar va shevalar bilan umumiylikka ega; -qo'shma fe'llar ko'makchi fe'lida sifatdoshdagi -r affiksi o'rnida uning -j varianti qo'llanadi: aytib berardi ~ **ājtīpperājdi**, olib borar edi ~ **apparajdi**; **Ingichka shevasining leksik xususiyatlari**. Bu shevada ham boshqa qipchoq shevalari singari singil o'rniga **ükä** so'zi, amaki o'rniga **äkä** so'zi qo'llaniladi. Shuningdek quyidagi dialektal

leksemalar mavjud: haligi ~ **baynayi** // **žanayï**, shovqin solma- **čuvillama**, janjallashma~**tobalašma**, pochcha ~ **žezzä**, yanga ~ **čeča**; bobo~**bāva**, buvi~**māma**, ona-ena, chorva mollari nomlaridan ho'kiz- **tana** deyiladi, : **zaldāri**-o'rik, **guldāri**-olxo'ri, chanqadim~**suvsadim** (suv istadim), siqilma~zerikma va b. Bu qatorni hali ancha davom ettirishimiz mumkin. Xulosa qilib aytganda, Ingichka shevasi o'ziga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlarga ega. Bu sheva hali to'liq dialektologik tahlil

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. –B. 46.
2. Nafasov T., Nafasova V. O'zbek tili toponimlarining izohli o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. - B. 37.
3. To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi.- Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi , 2004. –B.38.
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Ingichka>